KASBIY YO‘NALGANLIK SHAKLLANISHIDA QOBILIYAT, EHTIYOJ, MOTIVLARNING TUTGAN O‘RNI

Naxalboyev Mehriddin Ergash o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
70310301 Psixalogiya mutaxasisligi magistranti.
naxalboyevmehriddin@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kasbiy yo‘nalganlik shakllanishida qobiliyat, ehtiyoj, motivlarning tutgan o‘rnitasavvurlarning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot xulosalarida mazkur jarayonlarni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, xususan, diagnostika va mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish zaruriyati ko‘rsatilgan. Maqola ta’lim psixologlari, pedagoglar va kadrlar tayyorlash sohasi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Kasb mutanosibligi, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, kompetentlik, mentorlik.

Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko‘nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog‘liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo‘lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo‘lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko‘proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rganiladi.

Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko‘nikma,

malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Shu xususiyatlar mazkur bilim, ko‘nikma va malakalarga taalluqli bo‘ladi. Malakalar, ko‘nikma va bilimlarga nisbatan qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan faoliyatdagina namoyon bo‘ladi. (Rasm solish qobiliyati bor yo‘qligini shu faoliyatda aniqlanadi). Masalan, Albert Eynshteyn (1879-1955, nemis fizigi) o‘rta maktabda uncha yaxshi o‘kimagan o‘quvchi edi, uning kelajakdagi genialligidan, aftidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyatlar bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘zida ko‘rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ldi.

Qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatdir. Shunday qilib, qobiliyat odamlarni sifat jihatidan bir biridan farqlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatlarni sifat xususiyati deb qarab chiqadigan bo‘lsak, u odamning murakkab psixologik xossalari sifatida namoyon bo‘ladi, va maqsadga etish uchun juda zarur bir necha yo‘llarni egallaganligini bildiradi. Kishida u yoki bu faoliyatga qobiliyat bo‘lib, boshqa biriga bo‘lmasligi mumkin, lekin uning o‘rnini to‘ldirish, (kompensatsiya) imkoniyati borligidan foydalanib uni paydo qilish mumkin. (Masalan, kar-soqov, ko‘r olima O.I.Skoroxodova faoliyati).

Qobiliyatlarning sifat jihatidan xarakteristikasi insonga mehnat faoliyatining qaysi sohasida (konstruktorlik, pedagogik, iqtisodchilik, sport va boshqalar) osonlik bilan o‘zini topa oladi, katta yutuqlarga va muvaffaqiyatlarga erishadi deyishga imkon beradi. Odamlarni qobiliyatiga qarab tiplarga ajratish muammosi juda murakkab. Birida maxsus, birida umumiy sifat ustunlik qilishi mumkin. I.P.Pavlov qobiliyatga

qarab odamlarni 3 tipga bo‘ladi: «Fikrlovchi tip», «Badiiy tip», “O‘rtacha tip”. Bunda odamdagi ikki signal tizimi nisbatini hisobga oladi.

Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko‘nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi, lekin shu xususiyatlarning o‘zlari mazkur bilim, ko‘nikma va malakalarga taalluqli bo‘lmaydi. Aks holda imtihonda qo‘yilgan baho, doska oldidagi javob muvaffaqiyatlari to‘g‘risida qat’iy xulosa chiqarish imkonini bergan bo‘lur edi. Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga yaiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma’lum sifatlar yig‘indisi odamning pedagogik jihatidan asoslanib berilgan vaqt ichida egallangan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga qobiliyat borligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Agarda boshqa kishi xuddi shunaqa boshqa sharoitlarda uning oldiga faoliyat ro‘baro‘ qilayotgan talabalarning uddasidan chiqa olmasa, unda tegishli psixologik sifatlar, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, qobiliyatlar yo‘q deb taxmin qilishga asos bo‘ladi.o‘z-o‘zidan ma’lumki bunday odam zarur ko‘nikma va bilimlarni umuman egallay olmaydi, degan ma’no kelib chiqmaydi. Bu ko‘nikma va bilimlarni egallash cho‘zilib ketadi, natijasi nisbatanoz bo‘lsa ham favqulodda ko‘p kuch-g‘ayrat sarflanishi va shu kabilarni talab qilishini bildiradi. Bu hol biroz vaqt o‘tgach, shuningdek, qobiliyatlarning rivojlanishi mumkinligini ham inkor etmaydi. Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo‘lgan psixik fazilatlar yig‘indisidan iboratdir.

Qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladigan fazilatlar yig‘indisining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi. Masalan, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, matematikaga bo‘lgan qobiliyatlarning tuzilishi bir qator xususiy bo‘lgan qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi: matematik materiallarni umumlashtirish qobiliyati, matematik mulohaza yuritish jarayonini va tegishli matematik harakatlarni qisqartirish

qobiliyati (izchil ko‘p tabaqali mulohazalar qisqacha aloqalar bilan almashtiriladi, masalan idrok qilish va uning natijalari o‘rtasidagi bevosita aloqa o‘rnatishga qadar ish olib boriladi), fikr yuritish jarayonining qaytarilishi qobiliyati (ya’ni to‘g‘ri fikr yuritishdan teskari fikr yuritishga osonlik bilan o‘ta olish qobiliyati), matematik masalalarni hal qilish chog‘ida fikrlash jarayonining epchilligi va shu kabilar.Badiiy tip uchun bevosita ta'surot, jonli tasavvur, emotsiya ta'sirida paydo bo‘ladigan obrazlar yorqinligi xosdir. Fikrlovchi tip uchun mavhumlik, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar ustunligi xosdir.

Kasbiy yo‘nalganlik shakllanishi motivlar bilan ham uzviy bog‘liq sanaladi. Motiv (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motivatamasi sub’yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi.

Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta’minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo‘lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng hamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo‘ladi. Shunisi ajablanarliki, o‘sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo‘ladi.

Xulosa Har qanday davlat yoki jamiyatda o‘sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni kasbiy faoliyatga xar jixatdan to‘g‘ri, ilmiy va oqilona yo‘naltirish mazkur davlatning yoki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash motivlari maktabda shakllangan o‘qishga va bilimlarni egallashga bo‘lgan munosabatga, tanlangan kasbga bo‘lgan munosabatga xam ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Kasbiy faoliyatga tayyorlash soxasida motivasiya muammolarining muhim jixatlari quyidagilar: talaba motivasiyasining mazmuni va tarkibi, uning o‘quv kasbiy faoliyati jarayonida motivlar dinamikasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zinnser, W. (2018). Sport Psychology: Concepts and Applications. McGraw Hill Education.

2. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2019). Foundations of Sport and Exercise Psychology. Human Kinetics.

3. Vealey, R. S. (2017). Mental Skills Training in Sport. In Advances in Sport Psychology (pp. 75-89). Human Kinetics.

4. Smith, R. E. (2020). Psychological Factors in Athletic Performance.

5. Taylor, J., & Wilson, G. (2018). Applying Sport Psychology: Four Perspectives. Human Kinetics.